

**IBORALAR YOKI FRAZELOGIK BIRIKMALAR TARJIMASI****Yusupova Aziza Dilshod qizi**

O‘zDTU Tarjimonlik fakulteti talabasi

**Ilmiy rahbar: Saidxanova A.X.**

“Ingliz tili amaliy tarjima” kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frazeologik birikmalarni yani iboralarni tarjima qilish hamda ekvivalent topish va ayrim frazeologik jummalarni tarjima qilishdagi muammolar haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Frazeologizmlar, tarjim, muammolar, madaniy farqlar, semantik farqlar, grammatik farqlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, qisman tarjima, transpozitsiya, tushuntirish, o‘zbek tili, lingvistika, iboralar, xalq og‘zaki ijodi, semantika, tahlil, ko‘chma ma’no, ekvivalent.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о проблемах перевода фразеологических сочетаний (т.е. идиом), поиска эквивалентов и некоторых трудностях при переводе отдельных фразеологических предложений.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, перевод, проблемы, культурные различия, семантические различия, грамматические различия, прямой перевод, частичный перевод, транспозиция, объяснение/толкование, узбекский язык, лингвистика, идиомы, устное народное творчество, семантика, анализ, переносное значение, эквивалент.

**Abstract:** This article presents information on the problems of translating phraseological combinations (i.e., idioms), search for equivalents, and certain difficulties encountered when translating individual phraseological sentences.

**Keywords:** Phraseological units, translation, problems, cultural differences, semantic differences, grammatical differences, direct translation, partial translation, transposition, explanation/interpretation, Uzbek language, linguistics, idioms, folklore, semantics, analysis, figurative meaning, equivalent.

Frazeologizmlar, tilning rang-barang va ifodali vositalaridan biri bo‘lib, bir necha so‘zdan tashkil topgan, lekin yagona ma’no ifodalovchi barqaror birikmalardir. Ular turli xalqlar tillarida mavjud bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Hamda biz ko‘p hollarda frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Ko‘pincha oddiy birikmalarni tarjima qilish uncha qiyinchilik tug‘dirmaydi ammo ko‘chma ma’noda kelgan birikmalarga to‘g‘ri ekvivalent topish bir muncha qiyinlashadi. Ingliz tilidagi iboralarni tarjima qilish jarayonida turli usullardan foydalaniladi hamda tarjima jarayonida alohida yondashish zarur bo‘ladi.

Birinchi turdagi soʻz birikmasi sifat+ot boʻlib ularning semantik strukturasi bir-biridan ancha farq qilgani uchun ushbu birikmada qoʻllangan otning xususiyatini va sifatini ifodalaydi. Shuningdek ingliz tilidagi “free educational institution” birikmasida free soʻzi institution soʻzi bilan aloqasi yoʻq ammo baʼzi hollarda sifatlar otning xususiyatlari hamda sifatdan tashqari u bilan bogʻliq boʻlgan tushunchalarni ham ifodalab kelishi mumkin. Bunga qoʻshimcha qilib shuni aytishim mumkin yaʼni ingliz tilidagi “a medical person” birikmasini oʻzbek tiliga toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilib boʻlmaydi hamda sifat va ot maʼnosiga qaragan holatda bir soʻz bilan “shifokor” deb tarjima qilinadi. Oʻzbek tilida ham bunday birikmalar koʻplab uchrab turadi maslan: “dala guli”, “malla sochli” va hokazo. Birgina otni bir nechta sifat orqali aniqlab kelishi mumkin boʻlgan hollar ham uchrab turadi. Bunga misol qilib: “temir xotin”, “ichkari uy kaliti” va boshqa birikmalarda aniq bir narsani koʻplab soʻzlar bilan ifodalini kelishini koʻrishimiz mumkin. Baʼzi hollarda ingliz tilida otlarni aniqlab kelgan soʻzlar (bular ot yoki sifat boʻlishi mumkin)ni topish ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Bunga misol qilib “retail philanthropy business” birikmasi nima maʼnoni anglatishini bir qaraganda anglash ancha qiyinchilik tugʻdiradi, shunday ushbu jumlani ikki xil tushunish mumkin. Oʻzbek tilida ushbu holat har doim ham uchramaydi. Ingliz tilida baʼzi holatlarda otni aniqlab kelgan sifat tushurib qoʻyiladigan vaziyatlar ham uchrab turadi va bunga “dry pruning” iborasini misol qilsak boʻladi, hamda ushbu birikmani soʻzma-soʻz tarjima qilganda “quruq butash” ammo uning maʼnosi daraxt shoxlari quruq boʻlgan paytda qilingan butash nazarda tutilgan.

Tarjima jarayonida soʻz birikmalarining semantik va tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bundan eng birinchi boʻlib otni tarjima qilib olish tavsiya qilinadi chunki barcha aniqlanmishlar birgina otni aniqlab keladi hamda tarjimonning keying vazifasi gapdagi maʼno turlarini aniqlab soʻngra ularni ot va sifat oʻrtasidagi grammatik aloqalarni aniqlashdir. Hamda otdan oldin kelgan soʻz va soʻzlar otni aniqlab keladi, agarda biz tarjima qilayotgan gap inglizchadan oʻzbek tiliga boʻlsa uni oʻzbek tili grammatikasi asosida qilinadi aksincha boʻlsa yaʼni oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinayotgan boʻlsa uni ingliz tili grammatikasi asosida tarjima qilamiz. Baʼzida ingliz va oʻzbek tili erkin birikmalarining tartibi ikki tilda ham bir-birga toʻgʻri kelishi mumkin.

"Strategic Anns Limitation Treaty" – “Strategik qurollarni cheklash shartnomasi”. Bunday tarkibdagi, aniqlovchi boʻlgan iboralarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud boʻlib:

1. Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish oʻzbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi: "a cheap ticket" - "arzon chipta", "an expressive word" - "ifodali soʻz".

2. Ingliz tilida ot+ot shakli kelgan ibora ham xuddi yuqoridagidek tarjima qilinadi, hamda baʼzida oʻzbek tilidagi iboralarga ikki yoki undan koʻp ekvivalent toʻgʻri kelishi mumkin: "opposition leader" - "muxolifat lideri", "opponents leader".

3. Otni aniqlab kelgan inglizcha iboralar o'zbek tiliga tarjima qilinganda bog'lovchilar yordamida tarjima qilinadi: "youth unemployment" "yoshlar o'rtasidagi ishsizlik".

4. Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot o'zbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin: "his millionaire friend" - "uning millioner do'sti".

5. Ba'zan ingliz tilidagi birikmalari bir qismi tasviriy yo'l bilan, ya'ni bir nechta so'z yordamida tarjima qilinishi mumkin: "a bargain counter" - "narxi tushirilgan (pasaytirilgan) mollar do'kon (bo'lim)i .

6. Ingliz tilining tarkibida aniqlovchi bo'lgan iboralarni tarjima qilishda aksariyat hollarda ibora tarkibidagi muayyan so'zni/otni boshqa otga o'zgartirish zarur. Masalan, "free educational institutions" o'zbek tiliga "bepul o'qiladigan oliy o'quv yurtlari" deb tarjima qilinishi lozim, chunki "free" so'zi "institutions" otini emas, balki "educational" so'ziga aloqasi bor. Xuddi shu fikr "Parliamentary Labour Party" birikmasi bilan ham aloqador. Bu iborani o'zbek tiliga "Leyboristlar partiyasining parlament fraksiyasi" deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarjimani to'liq berish uchun ba'zi hollarda aniqlovchini ayni shu gapda qo'llangan boshqa ot bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol tariqasida "dismal array of titles" birikmasini ko'rib chiqaylik. Ushbu iborani o'zbek tiliga tarjima qilar ekanmiz ya'ni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilar ekamiz ma'nosiga putur yetkazishimiz mumkin, shuning uchun uni "dismal" so'zining aniqlovchisi "titles" otini emas, balki "array" otini aniqlab kelganligi uchun birikmani "eng yomon (eshitiladigan yoki quloqqa yoqmaydigan) laqablar yig'indisi" deb tarjima qilishga to'g'ri keladi.

7. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi aniqlanmishli iboralar o'zbek tiliga ravishli iboralar bilan tarjima qilinadi:

to be

to have

+ A + N phrase

to give

to take

Yuqoridagi namunalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin : "to have a good sleep" - "yaxshi (tiniqib) uxlamoq", "to take a deep breath" - "chuqur nafas olmoq" to give a loud whistle" - "qattiq hushtak chalmoq", "to have a good lunch" - "yaxshi (mazali taom yeb) tushlik qilmoq" va shu kabilar.

8. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda shunday hollar uchraydiki, turli ekstralingvistik omillar ta'sirida tarkibida fe'li ibora mavjud gaplar va ulaning tuzilishi butunlay o'zgarib ketadi. Masalan, "He had "I don't know expression" in his face" - "Uning yuzi, uni hech narsa bilmasligini ifodalab turardi". Bu borada O.Y. Petrova shunday deb yozadi: "Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o'rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi so'z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi (Petrova. 2006, 18)". Ingliz

tilining o'ziga xos aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan iboralari mavjud bo'lib, ular ichki predikatsiyasiga ega. Ularni tarjimasida asosan iboralaning stilistik xususiyatlariga bog'liq bo'lib agar bunday aniqlovchilar yoyiq hamda ko'p qismdan tashkil topgan bo'lsa, ular odatda o'zbek tiliga to'ldiruvchi ergash gaplar yordamida tarjima qilinadi. Aniqlanmishli ibora tarkibida ot xususiyatini ifodalovchi so'zlar bo'lgan hollarda esa ular bitta ot orqali tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi: "a grab-it-and-run... counter" - "yo'l-yo'lakay kirib ketiladigan mayxona" yoki "gazaxona". Frazeologik muammolar va ularning Tarjimada hal etilishiga to'xtaladigan bo'lsak ularni quyidagi farqlar orqali kategoriyalarga ajratgan holda tarjima qilish ancha osonlashadi.

**Madaniy farqlar:** Har bir tilning o'ziga xos madaniy konteksti mavjud. Ba'zi frazeologizmlar ma'lum bir xalqning tarixi, adabiyoti, urf-odatlar bilan bog'liq bo'lib, boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "raining cats and dogs" iborasi "yog'ishi juda kuchli" ma'nosini bildiradi, lekin bu iboraning to'g'ridan-to'g'ri o'zbekchaga tarjimasida ma'nosiz bo'ladi.

**Semantik farqlar:** Ba'zi frazeologizmlar bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, lekin ma'no jihatidan farq qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "to break the ice" va o'zbek tilidagi "muzlar erish" iboralari bir-biriga o'xshash tuyulsa-da, lekin ma'nolari biroz farq qiladi.

**Grammatik farqlar:** Tillarning grammatik tuzilishidagi farqlar ham frazeologizmlarni tarjima qilishda muammolar tug'dirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "to be under the weather" iborasi fe'l birikmasi bo'lsa, o'zbek tilidagi "o'zini yomon his qilish" iborasi esa fe'l bilan ot birikmasi hisoblanadi. Frazeologizmlarni tarjima qilish jarayonida yuqoridagi usullardan foydalangan holda unga qo'shimcha qilib quyidagilardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

**To'g'ridan-to'g'ri tarjima:** Agar maqsad tilning o'zida frazeologizmning ekvivalenti mavjud bo'lsa, u holda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "to kill two birds with one stone" iborasining o'zbekcha ekvivalenti "bir o'q bilan ikki quyon otmoq"dir.

**Qisman tarjima.** Ba'zi hollarda frazeologizmning bir qismini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish, qolgan qismini esa izohlab berish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "to let the cat out of the bag" iborasini "sirni fosh qilish" deb tarjima qilish mumkin.

**Transpozitsiya:** Ba'zi hollarda frazeologizmning tarkibiy qismlarini o'zgartirib, ma'nosini saqlab qolish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "to put the cart before the horse" iborasini "otni aravaning oldidan qo'yish" deb tarjima qilish mumkin.

**Tushuntirish:** Agar maqsad tilda frazeologizmning ekvivalenti mavjud bo'lmasa, u holda uni tushuntirish orqali tarjima qilish mumkin. Masalan, ingliz

tilidagi "to rain cats and dogs" iborasini "juda kuchli yog'ish" deb tushuntirish mumkin.

**Frazeologizmlar va ularning ahamiyati:** Frazeologizmlar biron tilda xalqning boy madaniy merosi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ular soʻz birikmalarining oʻziga xos shakli boʻlib, koʻpincha koʻchma maʼnoni ifodalaydi. Masalan, "yurak hovuchlamoq" iborasi qoʻrqib ketishni anglatadi. Bu kabi iboralar xalq ogʻzaki ijodining, folklor va tarixiy voqealarining izlarini oʻzida aks ettiradi.

### **Frazeologizmlarning tilda tutgan oʻrni**

Frazeologizmlar tilni yanada boyitadi va ifodali qiladi. Ular yordamida matn yoki nutqda hissiyotlar va maʼnolarni yanada boyroq ifodalash mumkin. Masalan, "choʻntagi quruq" iborasi insonning moliyaviy ahvolini qisqa va obrazli ifodalab beradi.

### **Frazeologizmlarning asosiy turlari**

Frazeologizmlar uch asosiy turga boʻlinadi:

1. **Frazeologik birikmalar:** Bu turdagi iboralar soʻzlarning alohida maʼnosini saqlagan holda, birgalikda yangi maʼno hosil qiladi. Masalan, "qalb qiroli" – sevimli inson.
2. **Frazeologik butliklar:** Bu turdagi iboralar toʻliq koʻchma maʼnoni anglatadi. Masalan, "quloq solmoq" – eʼtibor bilan tinglash.
3. **Frazeologik yoysakliklar:** Bunda soʻzlar erkin birikib, birgalikda mustaqil maʼnoni anglatadi. Masalan, "aqlli bosh" – dono inson.

### **Frazeologizmlar tadqiqoti**

Frazeologizmlar sohasida koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning kelib chiqishi, strukturasi va semantikasi lingvistik tahlil yordamida oʻrganiladi. Masalan, Oʻzbek tili frazeologizmlarining aksariyati qadimiy anʼanalar, xalq qoʻshiqlari va hikmatli soʻzlar asosida shakllangan.

### **Frazeologizmlar misollari**

1. "Olmani olma de" – rost soʻzla.
2. "Ogʻzidan bol tommoq" – yoqimli gapirish.
3. "Koʻngliga oʻtirish" – kimnidir yoqtirish.

### **Frazeologizmlar haqida qiziqarli faktlar**

1. Koʻpgina frazeologizmlar qadimiy rivoyatlar va afsonalar bilan bogʻliq.
2. Ular turli tillar oʻrtasida tarjima qilinayotganda oʻziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki har bir tilning oʻziga xos madaniy jihatlari bor.
3. Baʼzi frazeologizmlar zamon oʻtishi bilan oʻz maʼnosini oʻzgartirishi yoki eskirishi mumkin.

Umumiy qilib qaralsa, frazeologik birikmalarni tarjima qilish hammavaqt ham oson bo‘lmaydi. Frazeologik birliklarning ko‘pchiligi emotsional va ekspressiv ma’no tashiydi va milliy xususiyatga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev, Sh. (2005). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Karimov, N. (2010). Frazeologiyaning nazariy asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan olingan frazeologik iboralar.
4. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma I.G‘ofurov, O,Mo‘minov, N.Qambarov. - Toshkent : Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 216 b.